



**O‘ZBEK SAN’ATI JAHON SAHNALARIDA
(XX ASRNING 20 – 30-YILLARI MISOLIDA)**

Saodat Nazarova Tafiqovna

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy
madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
“Madaniyatshunoslik” bo‘limi mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ORCID: 0009-0002-2815-7336

tel.: 99.5396146 e-mail: saodat.nazarova@yahoo.com

Annotatsiya: 1925-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan Butunjahon amaliy san‘at ko‘rgazmasida Tamaraxonim va Muhiddinqori Yoqubov kabi san‘atkorlar O‘zbekiston madaniyatini jahon sahnasida namoyish etdilar. Keyingi yillarda o‘zbek san‘atkorlari Berlin, Moskva, Kavkaz va boshqa hududlarda gastrol safarlarini amalga oshirib, milliy musiqa va raqs san‘atini targ‘ib etdilar. Xususan, 1935-yilda London Xalq raqslari festivalida Tamaraxonim va Usta Olim Komilov katta muvaffaqiyatga erishib, xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘ldilar. Lekin soha vakillarining xizmatlari yetarli qadrlanmadi. Sovet hukumatining sohada qo‘lga kiritayotgan yutuqlarini ko‘rsatish maqsadida turli gastrol safarlari uyushtirildi va targ‘ibot-tashviqot ishlari ularning asosiy faoliyatlaridan ham ustun o‘ringa qo‘yildi.

Kalit so‘zlar: Tamaraxonim, Muhiddinqori Yoqubov, gastrol, san‘at targ‘iboti, etnografik truppa, Parij ko‘rgazmasi, London festivali.

Аннотация: На Всемирной выставке декоративного искусства, состоявшейся в 1925 году в Париже, такие артисты, как Тамараханум и Мухиддинкари Якубов, представили узбекскую культуру на мировой сцене. В последующие годы узбекские деятели искусства организовали гастрольные туры в Берлине, Москве, на Кавказе и в других регионах, продвигая национальное музыкальное и танцевальное искусство. В частности, на Международном фестивале народного танца в Лондоне в 1935 году Тамараханум и Усто Алим Камилов добились большого успеха и получили международное признание. Однако заслуги представителей сферы не были в полной мере оценены. В целях демонстрации достижений советской власти в области искусства организовывались различные гастрольные поездки, а пропагандистская деятельность ставилась выше основной творческой деятельности артистов.

Ключевые слова: Тамараханум, Мухиддинкари Якубов, гастролы, пропаганда искусства, этнографическая труппа, Парижская выставка, Лондонский фестиваль.

Annotation: At the 1925 World Exhibition of Applied Arts in Paris, artists such as Tamarakhonim and Muhiddinqori Yoqubov showcased Uzbek culture on the global stage. In the following years, Uzbek performers went on tour in Berlin, Moscow, the Caucasus,



and other regions, promoting national music and dance. Notably, at the 1935 London Folk Dance Festival, Tamarakhonim and Usta Olim Komilov achieved great success and received international recognition. However, the contributions of these artists were not sufficiently appreciated. To highlight the achievements of the Soviet government in the field, various tours were organized, and propaganda activities were prioritized over the performers' main artistic work.

Keywords: Tamarakhonim, Muhiddinqori Yoqubov, tour, art promotion, ethnographic troupe, Paris exhibition, London festival.

1924-yil Turkistonning milliy hududiy jihatdan bo'linishi yangi tuzilgan davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayoti o'zgarib ketishiga sabab bo'ldi. O'zbek madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan sahna san'ati bundan mustasno emas edi. O'zbek san'atkorlarining jahon sahnasiga chiqib, milliy san'atni namoyish etganligi bu davrdagi muhim voqealardan biri bo'lganligini qayd etish muhimdir.

1924-yilning kuzida SSSR va Fransiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi va keyingi yil bahorida bo'lib o'tadigan "Sovet artistlarining Butunjahon amaliy san'ati ko'rgazmasi"ga (Всемирная выставка декоративного искусства) sovet davlati ham taklif etiladi. Ushbu san'at ko'rgazmasi SSSRni butun jahonga tanitishi kerak edi. Ko'rgazmada rus san'atkorlaridan G.Lyubimov, S.Tesh, D.Aleksandrov, N.Kudryavsev, O.Kovaleva, O.Fedorovskaya, A.Dolivolar bilan birga, O'zbekistondan Tamaraxonim* va Muhiddinqori Yoqubov*, Ozarbayjondan Shavkat Xonim Mamedova, Boshqirdistondan Jumaboy Esenboev, Qozog'istondan Amre Kashaubaevlar ishtirok etganlar [1].

Parijda bo'lib o'tgan konsert dasturi e'lonida: "Rus etnografik san'atining to'rtta maxsus konserti" o'tkazilishi ko'rsatilgan, milliy ishtirokchilar esa "Sovet o'lkasining milliy artistlari" deb yozilgan edi. E'lonlarda konsertlar soni to'rtta deb yozilgan bo'lsa-da, aslida ularning soni yanada ko'proq bo'lgan, chunki, konsert ixlosmandlari ko'pligi sababli biletlar qo'lma-qo'l sotilib, yetmay qolgan. Shuningdek, parda ortiga va san'atkorlar

* **Tamaraxonim** taxallusi (1906 (hozirgi Yangi Marg'ilon shaharchasi) – 1910 (Toshkent)). Asl ismi va familiyasi Tamara Artyomovna Petrosyan. Qo'shiqchi va raqqosa, baletmeyster, o'zbek professional raksi asoschilaridan. O'zbekiston xalq artisti (1932). Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2001).

* Muhiddinqori Yoqubov - (1896, Farg'ona – 1957, Toshkent) — ashulachi, opera xonandasi (bariton), aktyor, o'zbek musiqali teatri asoschilaridan. Turkiston Respublikasining birinchi xalq hofizi (1923), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1930), O'zbekiston xalq artisti (1936). Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2000).



istiqomat qilayotgan mehmonxonaga tashrif buyuruvchilar soni juda ko'p bo'lgan. Ayniqsa, o'zbek san'ati ixlosmandlariga qiziqish yuqori bo'lgan. Ular "noma'lum o'zbeklar"ni ko'rgani, ular bilan suhbatlashgani kelganlar va hattoki ushlab ko'rmoqchi ham bo'lganlar. Tamaraxonim Parijga tashrif buyurganida avvaliga o'zbek milliy libosida yurish unga noqulaylik tug'dirgan. Lekin u yerlik ayollarning milliy libosimizga qiziqishi va e'tiborini ko'rgach, Tamaraxonim faxr bilan o'zbek milliy libosini kiyib yurgan. Hattoki, fransuz ayollari o'zbek milliy libosini kiyib ko'rib, sotib olmoqchi ham bo'lganlar [2, 67].

Konsert namoyishidan so'ng SSSRning Fransiya'dagi elchisi L.B.Krasin san'atkorlar bilan uchrashib: "Ofarin do'stlar, rahmat, ishonchni oqladinglar" degan so'zlar bilan ularni olqishlagan. Shuningdek, elchixona xodimlari, savdo-sanoat vakillari, parijlik san'atkorlar, rassomlar, matbuot vakillari ham san'atkorlar bilan uchrashish uchun yig'ilganlar [2,68].

Shunisi e'tiborga loyiqki, konsert namoyishining oxirgi kunida Tamaraxonim qattiq betob bo'lishiga qaramay, o'z san'atini namoyish etgan. U konsert so'nggida hushini yo'qotgan va olti oydan so'nggina oyoqqa turishga muvaffaq bo'lgan. Bu davr davomida Muhiddinqori Yoqubov Parij san'ati namoyondalari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazgan. U kompozitor S.V.Raxmaninov bilan ham tanishishga muvaffaq bo'lgan [2,69]. Tamaraxonim san'at ko'rgazmasi davomida A.Dunkan* bilan uchrashgan, R.M.Plexanova* esa Tamaraxonim betobligida unga g'amxo'rlik qilgan.

Tamaraxonim sog'aygach, ular 1926-yilda o'z gastrollarini Berlin safari bilan davom ettiradilar. U yerda musiqashunos, kompozitor va nazariyotchilar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi va Sharq musiqasining kelajagi bo'yicha qizg'in bahslar bo'lib o'tadi.

Gastrol dasturiga musiqa nomerlari bilan birga G'ulom Zafariyning "Erk bolalari" musiqali pesasi ham kiritilgan edi. Aytish joizki, ushbu pesa (libretto) tomoshabinga tushunarli bo'lish maqsadida fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan. Xorij davriy matbuotida o'zbek aktyorlarining ijro mahorati yuksak baholangan [3,66]. Davriy

* Aysedora Dunkan - (ing. *Isadora Duncan*, 1877–1878) amerikalik raqqosa, novator-erkin raqsga asos solgan. Qadimgi yunon raqsi bilan bog'liq bo'lgan raqs tizimi va harakatlarini ishlab chiqqan.

* Plexanova R.M. – shifokor (1856-1949) asli Xerson viloyati, Dobrenkaya yahudiy qishloq xo'jaligi koloniyasidan. Xersondagi Mariinskiy gimnaziyasi va Jeneva universiteti tibbiyot fakulteti bitiruvchisi.



matbuotda o'zbek san'atkorlarining xorijda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari xalqqa yetkazib borilgan [4].

Muhiddinqori Yoqubov o'zbek sahna san'atini jahonga tanitish bilan birga, o'zbek tomoshabinlariga jahon musiqa san'atini targ'ib qilgan ijodkor edi. 1927 yili Qo'qon shahriga Leningraddan Glazunov^{*} nomidagi kvartet tashrif buyuradi. O'zbek xalqiga yevropa tipidagi musiqa janri tushunarsiz bo'lganligini anglab, tomoshabinni qiziqtirish maqsadida Muhiddinqori Yoqubov qo'shma konsert haqida afishalar chop ettiradi. 1928-yilda esa u Andijonga rus balerinası Yekaterina Vasilevna Gelserni taklif etadi. O'zbek tomoshabinining ruhiyatini yaxshi tushungan Muhiddinqori Yoqubov xalqni qiziqtirish maqsadida rus va o'zbek tillarida varaqalar chop ettirgan va unda Ye. Gelserni "mo'jizakor-balerina", "barmoq uchida yuradigan va ucha oladigan qush" deb ta'riflaydi. Ushbu xabarni tarqatishda jarchilar ham qizg'in ishtirok etganlar va ular "Gelser" ismini "Gelsir-xon" – "balet qushi" deb xabar qilganlar [2, 151-152]. Aytib o'tish joizki, Muhiddinqori Yoqubovning sa'y-harakatlari natijasida konsert namoyishlari katta muvaffaqiyat bilan o'tgan.

Muhiddinqori boshchiligidagi truppa 1927-yilning 20-aprelidan boshlab Rossiya va Kavkaz bo'ylab gastrol safariga chiqqan. Ular Moskva, Nijniy, Perm, Vyatka, Vologda, Leningrad, Minsk, Kiev, Xarkov, Semfiropol, Sevastopol, Yalta, Novorossiysk, Suxumi, Batumi, Tiflis, Boku, Poltorask (Ashxobod) kabi jami 25ta shaharda o'zbek musiqa madaniyatini namoyish etib kelganlar [5, 999].

Moskvada o'z mahoratini namoyish qilgan ushbu ansambl haqida markaziy matbuotda ham iliq so'zlar aytilgan. Masalan, "Izvestiya" gazetasi mana shunday deb yozgan edi: "Moskvada o'z programmasini namoyish qilayotgan Muhiddinqori Yoqubov rahbarligidagi o'zbek davlat musiqali etnografik truppa bizni o'ziga xos xalq san'ati bilan tanishtirdi. Ayniqsa, Tamaraxonim bilan Muhiddinqori Yoqubov ijrosidagi duetlar qiziqarlidir [5, 999]. Ijodiy guruh o'zining 2,5 oylik safari davomida juda katta olqishlarga sazovar bo'lsa-da, davlat tomonidan ularning mehnatlari yetarlicha qadrlanmadi. Qo'lga

^{*} Glazunov nomidagi kvartet - torli kvartet. 1919-yil Petrogradga tashkil topgan ilk sovet professional kamerali ansambli. Kompozitor Aleksandra Glazunovga atab nomlangan. Jamoa 1925-1929-yillar oralig'ida mamlakat bo'ylab, hamda Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Daniya, Norvegiya kabi Yevropaning bir qator davlatlariga ham gastrol safarini uyushtirgan.



kiritgan yutuqlari evaziga truppani moddiy jihatdan rag‘batlantirish o‘rniga Maorif komissarligi zimmasiga to‘lanadigan ish haqining yarmisini berish haqida ko‘rsatma berilgan.

Safar davomida o‘zbek xalq san’ati ustalarining qobiliyati, mahorati yuqori baholanganligini etnografik truppa artisti Nizom Xoldorov quyidagicha keltiradi: “Moskvada Bolshoy teatr binosida 3 kun davomida konsert berilgan, konsertning muvaffaqiyatli o‘tayotganligidan xabar topgan A.V.Lunacharskiy uchinchi kungi konsertga poytaxt musiqali teatri xonanda va sozandalari, musiqa o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari, musiqashunoslarni taklif etgan. Jo‘raxon Sultonov va Xudoybergan Ma‘zumovlar ijrosida “Yovvoyi chorgoh” boshlanishi bilanoq zalga sukunat cho‘kkan. Notasiz, sozsiz, faqat likobchalar bilan ijro etiladigan, shu sababdan ijrochidan katta iste’dod, xotira, ovoz ishlatish mahorati va boshqalarni talab etadigan bu ashulaning o‘rtasi (o‘rta avj) kelganda tinglovchilar Jo‘raxon Sultonovning ovozdagi qudratdan hayron qolib o‘rinlaridan turib ketganlar, uning katta avjga kelganda esa, zalning hamma qismidagi tomoshabinlar o‘rnilaridan turib olgan edilar. Ashulani zaldagi barcha tomoshabinlar tugaguniga qadar tik turib tinglaganlar [6, 128-129].

1935-yilning iyul oyida London shahrida bo‘lib o‘tgan xalq raqslarining Butunjahon festivalida sovet delegasiyasi ham ishtirok etadi. Delegasiyada rus, ukrain, gruzin san’atkorlari bilan birga o‘zbek sahna san’ati vakillaridan Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov va To‘xatasin Jalilovlar qatnashadilar. Festivalda jahondagi o‘n sakkizta mamlakatdan taxminan ikki mingga yaqin raqqoslar o‘z san’atlarini namoyish etadilar. Angliya matbuoti Usta Olim Komilov va Tamaraxonim ijrosidagi “ritmlarining mukammalligi”, “simfoniya-dagi ritmlar yorqinligini”, raqslardagi “grasiya – noziklik, go‘zallik, egiluvchanlik”, “o‘zbek raqqosasining raqslaridagi o‘ziga xoslik”, “harakatlarning bir maromdaligi”ni fotosuratlar bilan birga tinimsiz yoritib borgan [2, 141-144].

Ular 10.000 o‘ringa ega bo‘lgan Londonning “Albert-Xoll” saroyida “Gul o‘yin”, “Pilla”, “Qari Navo”, “Mavrigi” va boshqa raqslarni namoyish etadilar. Shunisi diqqatga sazovorlik, o‘zbek san’atkorlari juda katta muvaffaqiyatga erishadilar va hatto “Tayms”



gazetasi muharriri ularga xalq san'atkorlari emas, balki malakali raqqoslar deb ta'rif bergan.

Festival davomida ingliz matbuotida o'zbek san'atkorlarining qo'lga kiritgan yutuqlarini yoritib borilgan, unda Tamaraxonimga "Sharq gavhari" deb ta'rif berilgan. O'zbek san'atkorlarining fotosuratlari barcha gazeta va jurnallarda chop etilgan. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, festival yakunida har bir ishtirokchi guruhga bittadan medal berilgan bo'lsa, o'zbek san'ati guruhi ijodkorlari Usta Olim Komilov va Tamaraxonim ikkita medal sohibi bo'lganlar [7]. Tadbir davomida Viktoriya bog'ida ingliz ishchilariga konsert uyushtirilganda muxbirlar ularni o'rab olib, ularning suratlari barcha matbuot sahifalarini egallaganini qayd etganlar. "Dunyo ayollari" jurnalida o'zbek ayollarining ozodligi, ularning kolxoz qurilishidagi ishtiroki alohida ta'kidlangan. Usta Olim tomonidan ijro etilgan o'zbek qo'shiqlarining 60 ta ritmi plastinkaga yozib olingan. Tamaraxonim "Sochlarim" va "Nozigim" qo'shig'ini, T.Jalilov esa "Galdir" qo'shig'ini kuylab, plastinkaga tushirganlar [8].

Festival ishtirokchilarini taqdirlash marosimida tashkilotchilar guruh qatnashchilarini alohida taklif etadilar va qirolichaning ko'rsatmasiga ko'ra Usta Olim Komilovga shaxsiy "medal" topshiriladi. Qirolicha Usta Olim Komilovni qo'lidan ushlab yuziga qo'ygan, qiroh ham shu harakatni takrorlagan. London Xalq raqslari uyida xozirgi kunga qadar guruh surati bilan birga Usta Olim Komilov kaftining gips nusxasi saqlanadi [2,146].

Festival ishtirokchilari 1935-yil 20-avgustda Toshkentga qaytgach, ular bilan birga suhbat o'tkaziladi. Ushbu uchrashuvda Tamaraxonim delegasiyaning festivaldagi ishtiroki bo'yicha Y.Oxunboboev va F.Xo'jaevga hisobot topshiradi. Ushbu uchrashuvda san'atkorlar sahna san'ati uchun malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida musiqa va balet maktablarining ko'proq ochilishini so'raydilar [9]. Shundan so'ng raqslarni sahnalashtirgani va ijro etgani uchun Tamaraxonim nomidagi Respublika balet maktabi ochilgan [10].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek madaniyati tarixi XX asrning 20 – 30-yillarida tub o'zgarishlarni kechirdi. O'zbek sahna san'ati sovet hukumatining qat'iy nazoratiga olingan holda faoliyat yuritdi. O'z navbatida soha vakillarining xizmatlari yetarli qadrlanmadi.



Sovet hukumatining sohada qo'lga kiritayotgan yutuqlarini ko'rsatish maqsadida turli gastrol safarlari uyushtirildi va targ'ibot-tashviqot ishlari ularning asosiy faoliyatlaridan ham ustun o'ringa qo'yildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. <https://ztgzt.kz/pesnya-zvuchashhaya-skvoz-veka>
2. Тамара Ханум. Моя жизнь. Воспоминания о себе и выдающихся деятелей искусств Узбекистана. – Ташкент, 2009. – 295 б.
3. Авдеева Л.А. Мухитдин Кари-Якубов. – Ташкент. 1984. – 258 с.
4. Parijda o'zbek san'ati (M.Qori Yoqub, Tamaraxonim) // Yer yuzi. 1926. – №6. – В. 10.
5. San'atshunoslik instituti arxivi. №693/3 999-b.
6. Юсупов Ш. Санъат ва ҳайрат. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 208 б.
7. Международный фестиваль танца (Письмо из Лондона). Исключительный успех узбекских исполнителей // Правда Востока. 5 августа 1935 года; Узбекские танцоры в Лондоне // Правда Востока 9 августа 1935 года; Искусство ритма. Участники фестиваля танца в Ленинграде. 11 август 1935 года; Триумф искусства народов Союза ССР. 14 август 1935 года.
8. Впечатления Тамары Ханум // Правда Востока. 6 августа 1935 года.
9. Участники фестиваля танца на приеме в ЦИК УзССР // Правда Востока. 23 августа 1935 года.
10. O'zMA. 2087-fond, 1-ro'yxat, 7-varaq.